"TASDIQLAYMAN"

"O'zmilliybank" AJ Chortoq BXM boshlig'i

_____ E.Xakimov

"20" APREL 2026 yil

"O'zmilliybank" AJ Chortoq BXM boshlig'i E.Xakimov tomonidan o'tkazilgan

YIG'ILISh BAYoNI 3

2026 yil 20 aprel **Chortoq tumani**

Raislik qiluvchi: E.Xakimov – "O'zmilliybank" AJ Chortoq BXM boshqaruvchisi

Qatnashdilar: Bosh boshqarma Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i hamda bosh mutaxasisi, BXM o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari hamda xodimlar,

KUN TARTIBIDAGI MASALA

"O'zmilliybank" AJ Chortoq BXMda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish va uning salbiy oqibatlarini oldini olish, Totalizator va azart qimor o'yinlari noxush holatlarga olib kelishi, xodimlar orasida intizomni mustahkamlash, qonunchilik buzulishini oldini olish, xodimlar tomonidan "O'zmilliybank" AJ Ichki mexnat tartib-qoidalariga doimiy ravishda amal qilinishi kelgusida bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilash.

Yig'ilishni "O'zmilliybank" AJ Chortoq BXM boshlig'i E.Xakimov kirish so'zi bilan ochib, dastavval "O'zmilliybank" AJ boshqaruv raisining Namangan viloyati Bosh boshqarmasi va uning barcha hududiy tuzilmalarida xizmat olib borayotgan xodimlarga yuksak ishonchi borligini etkazish bilan boshladi.

Shuningdek, kun tartibida ko'rsatilgan masalalar "O'zmilliybank" AJ tomonidan bank xodimlarining va mijozlar o'rtasida bir-birlariga bo'lgan samimiylik hamda bankka kelgan har bir mijoz bilan muloqatda bo'lgan vaqtida ehtiyotkorlik bilan so'zlashishni, ijobiy muhit, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyani oldini olish, uning illatlariga qarshi kurashish noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik, turli hil azart qimor o'yinlari va uning illatlari yomon oqibatlarga olib kelishi haqida olib borilayotgan ishlar haqida nutq so'zladi.

Jumladan, Chortoq BXM boshlig‘i E.Xakimov “O‘zmilliybank” AJ rahbariyati tomonidan barcha xodimlar uchun shart-sharoitlar yaratilganligi xodimlar tomonidan korrupsiya va tamagirlikka yo‘l qo‘ymasdan yaxshi ish tashkil etishlari to‘g‘risida berdi.

Shuningdek bank xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, kunlik kiyinish madaniyatiga, bank ichki mexnat tartib-qoidalariga doimiy ravishda amal qilishlari, mijozlarni lozim darajada tekshirish va har bir bankka kelgan mijozga e’tiborli bo‘lishni, ularni barcha operatsiyalarni nazorat qilib borishni, mijozlarning noqonuniy amaliyotlar bajarishga bo‘lgan urinishlarni oldini olish, bo‘yicha qisqacha to‘xtalib va bu borada har bir xodimlar hushyor va ehtiyotkor bo‘lishlari to‘g‘risida ogohlantirib o‘tdi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik muxitini yaratish va korrupsiyaning nopok illat ekanligi, bu qilmishning oqibatlari nimalarga olib kelishi, qonunchilikda qanday jazolar belgilanganligini aytib, mazkur masala bo‘yicha hozirgi kunda Davlat raxbari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishini jadallashtirish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yilganligi, 2026 yil Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida “favqulodda xolat”-deb e’lon qilinganini, shu sababli “O‘zmilliybank” AJ Chortoq BXM da ichki muhitni talab darajasida ushlab turish, qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun bankning barcha hududiy tuzilma rahbarlari va bo‘lim boshliqlariga qo‘l ostidagi xodimlarni nazoratga olinishini hamda ular bilan doimiy ravishda profilaktika ishlarini olib borishni ta’kidladi.

Bundan tashqari, E.Xakimov o‘z so‘zida uzoq yillar davomida ishlab kelgan “O‘zmilliybank” AJ Namangan viloyati Bosh boshqarmasi Muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi sobiq bosh yuristkonsult lavozimida ishlagan A.To‘ychiboyev bank mijozi bilan til biriktirib iqtisodiy sudida ko‘rilayotgan ishini mijoz tomonga hal qilib berishlik uchun o‘zaro kelishilgan miqdordagi summani olayotgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan qo‘lga olinganligi, “O‘zmilliybank” AJ Farg‘ona viloyati “Marg‘ilon” bank xizmatlari ofisi valyuta ayirboshlash va kassa amaliyotlari sho‘basi kassiri O.Abdurayimov joriy yilning aprel oyida BXO kassasidan 200 so‘mlik kupyurada jami miqdori 274 000 000 (ikki yuzi etmish to‘rt million) so‘m pul mablag‘ini o‘zlashtirib internet tarmog‘idagi onlayn qimor o‘yinlariga tikib yuborganligi haqida shuningdek, “O‘zmilliybank” AJ Andijon viloyati Bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari - Muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlab turgan M.Xasanov o‘zining egallab turgan lavozimini suiste’mol qilgan holda katta miqdordagi pora evaziga fuqaro ishini bitirib berishi uchun olgan vaqtida qo‘lga tushganligini aytib kelgusida bank tizimida bunday salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymasligini aytib o‘tdi.

“O‘zmilliybank” AJ ning boshqaruv raisi A.Q.Mirsoatovning 2020 yil 10 avgust kungi “O‘zmilliybank AJ xodimlariga totalizator va azart o‘yinlar o‘ynashni ta’qiqlash to‘g‘risida”gi 126-son buyrug‘ida “O‘zmilliybank” AJning barcha xodimlari (1xbet) va boshqa onlayn azart o‘yinlarni o‘ynash bilan bog‘liq xatti-harakatlari ish beruvchi tomonidan tamoyillariga zid deb hisoblanishi haqida aytib o‘tdi.

Yig‘ilish davomida Chortoq BXM boshlig‘i E.Xakimov kun tartibidagi masalalar yuzasidan o‘z fikr-muloxazalarini bildirish uchun so‘zni Bosh boshqarma Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo‘limi boshlig‘i S.Xamidovga berdi. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan S.Xamidov so‘zini davom ettirib, kelgusida yuqorida aytib o‘tilgan masalalar bo‘yicha barcha xodimlarni mas’uliyatlarini yanada oshirishlari, jamiyatda korrupsiyaga

murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rilayotganini aytdi. Shuningdek 2025-yil 9-aprel kuni “O‘zmilliybank” AJ Axborot va Bank xavfsizligi departamenti direktori Sh.N.Muxamadkulov va Bank tarmoqlari va servisni rivojlantirish departamenti direktori F.F.Aliyevlar raisligida hamda 2026-yil 10-fevral kuni “O‘zmilliybank” AJ Axborot va Bank xavfsizligi departamenti, Bo‘lim va filiallar xavfsizligini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i I.Y.Gadayevlar Namangan viloyati Bosh boshqarmasida navbatdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishga bag‘ishlangan yig‘ilishida 2026 yil Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida “favqulodda holat”-deb e’lon qilinganini, shu sababli “O‘zmilliybank”da ichki muxitni talab darajasida ushlab turish, qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik, turli xil qonunchiliklar buzilishi, azart o‘yinlari o‘ynamaslik, xodimlarning Bank ichki mehnat tartib qoidalariga doimoy ravishda rioya etishlari bo‘yicha ogohlantirishlar berib o‘tilganini aytib o‘tdi.

So‘z yakunida yig‘ilish raisi - “O‘zmilliybank” AJ Chortoq BXM boshlig‘i E.Xakimov tomonidan kun tartibidagi masalaning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritilib, kelgusida bank xizmatlari bilan bog‘liq operatsiyalar bankning barcha mas’ul xodimlari tomonidan yo‘riqnoma va normativ hujjatlar talablari asosida o‘z vaqtida sifatli bajarilishini qattiq nazoratga olinishini, mas’ul xodimlarga nisbatan fuqarolar tomonidan haqli etirozlar bildirilishi, xizmat vazifalarini suiste’mol qilib, korrupsiya holatlari hamda totalizator va azart qimor o‘yinlariga o‘ynagan holat kuzatilsa, qonuniy tartibda tegishli jazoga tortilishi hamda bank bilan tuzilgan mexnat shartnomasini bir tomonlama bekor qilinishi to‘g‘risida qat’iy ogohlantirdi.

Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig‘ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. “O‘zmilliybank”AJ Chortoq BXM tizimida xodimlar tomonidan huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish yuzasidan korrupsiya xolatlari xamda totalizator azart qimor o’yinlari bo’yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni ijro uchun qabul qilinsin;
2. BXM xodimlari korrupsiya holatlari, (1xbet) va boshqa onlayn totalizator hamda azart o‘yinlarni boshqa turlarini o‘ynash bilan bog‘liq xatti-xarakatlari aniqlangan taqdirda, salbiy sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shatilishi to‘g‘risida har bir xodim ogohlantirib o‘tilsin.
3. Chrtoq BXM boshqaruvchisi va Axborotlashtirish bo‘limi zimmasiga hamda barcha BXM xodimlariga belgilangan topshiriqlarni tayinlash, rejada belgilangan muddatlarda ijrosini taminlash, korrupsiyaga olib keluvchi omillarga yo‘l qo‘ymaslik vazifalari yuklatilsin.
4. Ushbu qarorni bajarilishi bo‘yicha nazoratni boshqaruvchi 1-o‘rinbosari N.Hojiyev zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilish kotibi: **N.Bodirova**

М. Махмудова
А. Хожибаев
О. Махмудов
Н. Бодиров
Х. Одилов
А. Абдуганиев
С. Вапиев
У. Содиков
А. Абдуазизов
В. Ozatchiyev
Ж. Каталов
Ж. Ахмедов
Н. Назаралиева
Д. Холмирзаева
С. Эргашева
Д. Юсупова
С. Ходжиева
И. Турсунов
А. Каталов
Д. Абдулаева
А. Холматов

И. Юнусов

М. Пулатов

Н. Хожиев

И. Ибрагимов

М. Аббасова

У. Раззатуллаева

Ж. Усманов

М. Ибрагимов

Жасми 29та ходим

катнашди.